



2022- yil yanvar – noyabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida Samarqand viloyatida jami **7 746,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **112,6 %** tashkil etdi.




2022- yil yanvar- noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa qurilish pudrat ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar- noyabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 3,5 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 263 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarining qurilish ishlari hajmi 276,1 % ni (jami qurilishdagi ulushi 67,9 %) tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar- noyabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 70,6 % ni tashkil etdi.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.12.2021- yil	01.12.2022- yil	
Samarqand viloyati	3 264	3 527	263
Samarqand sh.	1 124	1 205	81
Kattaqo'rg'on sh.	123	139	16
tumanlar:			
Oqdaryo	153	169	16
Bulung'ur	74	79	5
Jomboy	134	144	10
Ishtixon	144	143	-1
Kattaqo'rg'on	134	145	11
Qo'shrabot	70	80	10
Narpay	87	87	0
Payariq	271	302	31
Pastdarg'om	301	343	42
Paxtachi	71	78	7
Samarqand	149	156	7
Nurobod	61	71	10
Urgut	230	237	7
Toyloq	138	149	11



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.12.2022- yil holatiga



Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,2 %), Pastdarg'om (9,7 %) va Payariq (8,6 %) tumanlaridir.


2022- yilning yanvar- noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1 609,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **181,3 %** ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **20,8 %** ni tashkil qildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da

12,9


20,8



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulush Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **52,5 %** i), Pstdargʻom tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,6 %** i), Samarqand shahri **6,1 %** va Samarqand **6,6 %** tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- 2022- yil yanvar- noyabr oylarida
 - 2021- yil yanvar- noyabr oylarida


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar- noyabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **66,3 %** bajarilib, 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **0,2 %** punktga ko'payish kuzatildi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,9 %** ni tashkil etgan holda **5 140,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **12,9 %** ni tashkil etib, **996,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **69,4 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **149,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **35,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **7 597,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **117,5 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **98,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar- noyabr oylarida

71,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **71,0%** yoki **5 500,5** mlrd. so'mni tashkil etgan.

28,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 581,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **28,8 %** ni tashkil etdi.

54,0 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 972,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,0%** ni tashkil etdi.

17,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **946,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **17,2%** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar- noyabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘shish sur‘ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	7 746,7	112,6	5 500,5
Samarqand sh.	2 313,7	106,6	2 090,1
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	126,3	105,8	116,2
Oqdaryo	574,7	101,2	444,6
Bulung‘ur	219,8	102,2	154,0
Jomboy	343,1	104,9	264,1
Ishtixon	349,9	105,1	286,1
Kattaqo‘rg‘on	220,9	101,8	187,1
Qo‘shrabot	193,6	114,5	142,9
Narpay	217,6	104,0	181,6
Payariq	501,0	105,6	138,5
Pastdarg‘om	600,8	135,3	385,0
Paxtachi	162,5	102,1	114,6
Samarqand	371,4	113,0	203,6
Nurobod	94,6	108,3	86,4
Urgut	376,6	100,1	236,6
Toyloq	1 080,2	157,8	469,1

¹Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2022- yil yanvar- noyabr

2,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

67,9



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

29,2



Bino va inshootlarni
qurilishi

2021- yil yanvar- noyabr

4,3



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

27,7



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

68,0



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,8 %** ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar- noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **20,1 %** punktga kamayish kuzatildi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,0 %** punktga ko'paygan, **52,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,1 %** punktga ko'payib **44,0 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,7 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **4,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,3 %** (**4,2 %** punktga ko'paydi).




■ 2021- yil yanvar- noyabr oylarida ■ 2022- yil yanvar- noyabr oylarida



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **5,8 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **22,4 %** punktga kamaydi. **94,2 %** ulush kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **22,4 %** punktga ko'payish kuzatildi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar- noyabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Samarqand sh.
2 313,7

2

Toyloq
1 080,2

3 Pastdarg'om
600,8



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Nurobod
94,6

2

Kattaqo'rg'on sh
126,3

3 Paxtachi
162,5





**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

